**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Ichki yuqumsiz kasalliklar" kafedrasi professori, v.f.d. Q.N.Norboyev tomonidan tayyorlangan "Jigar kasalliklari" mavzusidagi ma'ruza matniga**

# TAQRIZ

Professor Q.N.Norboyev tomonidan tayyorlangan "Jigar kasalliklari" mavzusidagi ma'ruza matni **60840300 "Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari"** ta'lim yo'nalishining 4- bosqich 401-, 402- guruh talabalari uchun "Ichki yuqumsiz kasalliklar" fanidan rejaviy ma'ruza uchun mo'ljallangan bo'lib, "Ma'ruzaning o'qitish texnologiyasi", "Ma'ruzaning texnologik xaritasi" va "Vizual materiallar" bo'limlaridan iborat.

"Vizual materiallar"da "Jigar kasalliklari"ning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari, tashxisi, ertachi tashxisi, davolash va oldini olish choralari batafsil ifodalangan. Shuningdek, jigarning sog'lom va kasallangan ko'rinishlarining rangli rasmlari ham keltirilgan.

Ma'ruza matnida mavzuning mazmuni tushunarli tilda va xatosiz holda batafsil ifodalangan. Kasalliklarni izohlashda zamonaviy tekshirish hamda davolash usullaridan foydalanilgan. Barcha raqamli ma'lumotlar zamonaviy veterinariya amaliyotidan olingan bo'lib, talabalarga kasallikning umumiy tashxis qo'yish va davolash uchun pedagogika talablariga to'liq javob beradi.

Ma'ruza **60840300 "Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari"** ta'lim yo'nalishining 4- bosqich 401-, 402- guruh talabalari uchun "Ichki yuqumsiz kasalliklar" fanidan "Jigar kasalliklari" mavzusi talablariga to'liq javob beradi. Ushbu matnni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda ma'ruza o'qish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Veterinariya jarroxligi va akusherlik" kafedrasi professori, v.f.d.** **B.M.Eshburiyev**

...ning imzosini
TASDIQ...
Samar... davlat ve... meditsinasi,
chorvac... va bio... universiteti
X...

**SamVMCHBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasi professori Q.N.Norboyevning “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” fakulteti 4- bosqich I oqim talabari uchun “Ichki yuqumsiz kasalliklar” fanidan “Jigar kasalliklari” mavzusidagi ma’ruza matniga**

**TAQRIZ**

Bugungi kunda veterinariya sohasidagi dolzarb muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va yechimlarni topish, ilmiy yangiliklar yaratish va ularni amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Jigar organizm uchun nihoyatda muhim a’zo hisoblanib, oqsil, uglevod, vitaminlarni sintezlaydi, hamda detoksikatsiya qilish xususiyatiga ega. Professor Q.N.Norboyev tomonidan tayyorlangan “Ichki yuqumsiz kasalliklar” fanidan “Jigar kasalliklari” mavzusidagi ochiq ma'ruza matni yangi pedagogik texnologiyalar asosida, xorijiy adabiyotlardan foydalangan holda tayyorlangan.

Ma’ruzada mavzuning dolzarbligi, mavzuga oid hukumat qarorlari, muammoning amaliyotdagi ahamiyati, mavzuning maqsadi, o‘quv elementlari, adabiyotlar ro‘yxati, tayanch iboralar, nazorat savollari va mavzuga oid ilmiy materiallar aniq va tushunarli bayon etilgan. Mavzu bo‘yicha kafedra olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Ushbu ma'ruza matni fanning o‘quv va ishchi o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, uning tarkibida fanning maqsadi, o‘rganilganlik darajasi, tarqalishi, iqtisodiy zarari atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga o‘quv elementlari, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

“Jigar kasalliklari” mavzusidagi ochiq ma'ruza matni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonun talablariga mos keladi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida qo‘llash uchun tavsiya etaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti**
**Veterinariya sanitariya va urchitish**
**patologiyasi laboratoriyasi mudiri**
**v.f.d. katta ilmiy xodim** **O.U.Kuldashev**

KADRLAR BO'LIMI